

“FIZIKA-2021” O‘ZBEKISTON FIZIKLARI FORUMI O‘TKAZILADI

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligiga bag‘ishlanadi

O‘zbekiston fiziklari birinchi forumi 2021-yilning dekabr oyida bo‘lib o‘tadi. Ushbu forum O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligiga bag‘ishlangan bo‘lib 2021-yil fizika fanini rivojlantirish yili deb e‘lon qilinishi munosabati bilan tashkil qilinmoqda, uning dasturida O‘zbekistonda fizika fanining dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha taqdimotlar va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi fizika yo‘nalishidagi institutlari taqdimotlari rejalashtirilgan. Ushbu Forum doirasida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti tashkil topganligining 65 yilligi ham nishonlanadi. Forum qatnashchilari uchun batafsil ma‘lumotlar va uning dasturi 2021-yilning 10-sentyabridan boshlab ishtirokchilarga elektron pochta tizimi orqali ma‘lum qilinadi.

Forum dasturi va o‘tkazilish muddatlariga Respublikadagi epidemiologik vaziyatga bog‘lik ravishda tegishli o‘zgarishlar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi